

MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



B MARKETING E INNOVATSIYA D I BIZNES S RAQAMLI MARKETING V D ELEKTRON TIJORAT

№2-SON

2025-YIL, FEVRAL

9710 xalqaro daraja



№240874

ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketingjournalbot](https://t.me/tidiumarketingjournal)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tidiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortqimrziyevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdirahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamSI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, “Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, “Savdo ishi” kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti “Menejment va marketing” kafedrasini mudiri

Elektron nashr 609 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 28-fevralda ruxsat etildi

HAMKORLARIMIZ:

1. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
2. “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi



MUNDARIJA

AHOLI O'RTASIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING AHAMIYATI	7
Nazarova Ra'no Rustamovna	
INTEGRATING UZBEKISTAN STATE BUDGET STRATEGIES WITH FINANCIAL LITERACY FOR ECONOMIC PROSPERITY	17
Nazarova Rano Rustamovna, Jamolov Bejan Xurshidovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKANI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	26
Karrieva Yakutjan Karimovna	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI HUDUDIY STATISTIK GURUHLASH	33
Akbarova Barno Shuxratovna	
KORXONALARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONI: RAQAMLI MARKETING VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH VA SAMARADORLIKNI BAHOLASH USULLARI ..	40
Amonov Mirzohid Tuymuratovich	
JIZZAX VILOYATI FERMER XO'JALIKLARI FAOLIYATINING STATISTIK TADQIQI	47
Ayubjonov Abbas Xosilovich, Ratayev Faxriddin Irismatovich	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYALARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	58
Berdiyeva Dilfuza Axatovna, Najmiddinov Sherzod Qiyomiddin o'g'li	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISHGA YO'NALTIRILGAN OILAVIY TADBIRKORLIKDA INSON IMKONIYATLARIGA YONDASHUVI	65
Ernazarova Nilufar Nozimjonovna	
IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARINING O'RNI VA IQTISODIY FAOLIYATINING STATISTIK TAHLILI	75
Jalolov Ilhomjon Isomiddinovich	
NEYROMARKETINGNING ZAMONAVIY REKLAMA STRATEGIYALARIGA TA'SIRI	86
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna, Matrizayeva Dilaram Yusubayevna	
O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA QISHLOQ HO'JALIK MAHSULOTALARI ISHLAB CHIQRISHNING AHAMIYATI	97
Masharipova Fazilat Axmedovna	
THE IMPORTANCE OF BENCHMARKING IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF MANUFACTURING ENTERPRISES.....	106
Musayeva Shoirazimovna	
KORXONALARNING FAOLIYATIDA DAROMAD VA XARAJAT HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Muxibova Guli Yarkinovna, Turabekova Ominaxon Ulug'bek qizi	
TRANSPORT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	119
Sapayev Axmed Durdibaevich	
"UNIVERSITET 4.0" MODEL: RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA UNIVERSITETLARNING RAQAMLI MARKETING YONDASHUVI	127
Xidoyatov Murod Batirovich	
TURIZM INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH YONDASHUVLARI.....	139
Yusupova Mexribon Uktamovna	
MINTAQADA TRANSPORT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TADQIQI.....	148
Sapayev Axmed Durdibaevich	
O'ZBEKISTONDA YUK VA YO'LOVCHI TASHISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	154
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	

BANK XIZMATLARINING TRANSFORMATSIYASI VA MOLIYAVIY TEKNOLOGIYALARINING ROLI.....	162
Azimova Nasiba Shuxratovna	
KORXONALAR FAOLIYATIDA MEHNAT INTIZOMINING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA’SIRI.....	170
Azizova Sayyora Xamidullayevna	
HUDUDLARNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASIDA MAHALLIY BYUDJETLAR BARQARORLIGINI TA’MINLASH YO’LLARI.....	176
Davlatov Muradbek Saparboyevich	
SIX MAIN STAGES OF THE SUPPLY PROCESS.....	183
Ergashev Jahongir Bakhodirovich	
O’ZBEKISTONDAGI QURILISH MATERIALLARI SANOATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	195
Igamova Shaxinya Zikrilloevna	
XALQARO SAYYOHLIK BOZORIDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARB TENDENSIYALARI.....	202
Kasimova Zilola G’ulomiddinovna	
KORXONA IQTISODIYOTIDA EKOLOGIK BOSHQARUV TIZIMINI JORIY ETISHNING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	210
Qodirov Abduvoxid Abdumannof o’g’li	
O’ZBEKISTONDA TUROPERATORLAR FAOLIYATIDA MARKETINGNI TAKOMILLASHTIRISH	220
Qutlimurotov Fayzullo Sadulayevich	
INNOVATSION MENEJMENT TAMOIYILLARI ASOSIDA KORXONALARNING BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	229
Shadieva Madina Djaloliddin qizi	
THE IMPORTANCE OF OPERATING EXPENSES IN MANAGEMENT COSTS	237
Turdieva Gulaida Omirbayevna, Maulenberganova Khusnida Khursand qizi	
ILM-FAN SOHASIDA BOZOR MUNOSABATLARINI TASHKIL ETISH TIZIMI VA UNI AMALGA OSHIRISH MEXANIZMI.....	247
Tursunov Bekmuxammad Omonovich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING KOMPANIYA KAPITAL QIYMATIGA TA’SIRI	255
Urinov Bobur Nasilloevich	
O’ZBEKISTONDA MEHMONXONA XO’JALIGI MILLIY TASNIFLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO’LLARI.....	263
Xamitov Mubin Xabibjonovich	
RAQAMLI TEKNOLOGIYALARINING KO’ZI OJIZLARNING INTELLEKTUAL FAOLIYATIDAGI O’RNI	276
Mannopova Manzura Jamil qizi	
HUDUDLARDA ENERGIYA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	284
Safarov Akbar Shokirovich	
TO’QIMACHILIK KLASSTERLARIGA SINERGIYANING TA’SIRI VA UNING ELEMENTLARI	291
Tojiyev Sa’dulla Muhitdinovich	
УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИЯМИ В СФЕРЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ	302
Абдурахманов Зафар Мамурович	
ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	311
Карабаева Гулнора Шарафитдиновна,	

НЕКОТОРЫЕ ОСОБЕННОСТИ ВНЕДРЕНИЯ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ В КИТАЕ	320
Медынская Ирина Вильевна	
MODA INDUSTRIYASIDA NEYROMARKETINGDAN FOYDALANISH	339
Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
KORXONALARNING EKSPORT SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI TAHLIL QILISH	346
Jiyamuradov Rustam Nuriddinovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA BIZNES MODELLARINING SHAKLLANISHI	351
Saatova Lolakhon Ergashevna	
MODA INDUSTRIYASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	359
Ahmedova Rayhona Jasurbek qizi	
OLIY TA'LIM MUASSALARI BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	367
Berdiyev Temurbek Maxmudullo o'g'li	
MINTAQALARDA KLASSTERLARNING TASHKILIY IQTISODIY MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH	376
Beknazarova Manzura Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARIDA BRENDNI MILLIY AN'ANALARGA MOS RAVISHDA SHAKLLANTIRISH XUSUSIYATLARI	383
Babaxodjayev Giyosiddin Nasirovich	
THE ROLE OF PROGRAMMATIC ADVERTISING IN DATA-DRIVEN MARKETING: OPTIMIZING TARGETED ADVERTISING STRATEGIES IN THE TOURISM SECTOR	392
Sodikov Mirziyo Odiljon ogli	
UMUMIY FOYDALANISHDAGI AVTOMOBIL YO'LLARINI QURISH, QAYTA QURISH ISHLARIGA XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI MABLAG'LARINI JALB QILISH	400
Pardayev Fayzulla G'affarovich	
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА	407
Гафурова Дилшода Рамазановна	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARI: IJTIMOY MEDIA MARKETINGDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	414
Xamidov Obidjon Xafizovich	
Baxtiyorova Nigina Ulug'bek qizi	
KOMPANIYALAR KAPITAL AKTIVLARINI BAHOLASHNING NAZARIY JIHATLARI	423
Bunyod Usmonov Aktam o'g'li	
ЭКОНОМИЧЕСКАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ КЛАСТЕРОВ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	427
Садриддинова Нигора Хусниддиновна	
ИГРЫ И ИГРОВЫЕ ЗАНЯТИЯ ПО ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ	433
Фозилова Фирангиза Комиловна	
BILIMLAR IQTISODIYOTINI SHAKLLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	440
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	448
Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	458
Sodiqova Dilafruz Zohid qizi	

O'ZBEKISTONDA YASHIL MOLİYANI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI VA STRATEGIK YO'NALISHLARNI ANIQLASH	467
Masharipova Shahlo Adambaevna	
MOBIL ALOQA TARMOQLARINING DUNYO IQTISODIYOTIDA TUTGAN O'RNI	478
Dilafroz Aripova	
TADBIRKORLIK MUHITINI YAXSHILASHNING TASHKILY MOLİYAVIY MEXANIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.	489
Naziraliyev Diyorbek Imomali o'g'li	
SUG'URTA KOMPANIYALAR MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI RISKLAR VA ULARNI BAHOLASH USULLARI	500
Haqberdiyev Bekzod Uktamovich	
AGROKLAster TIZIMIDA QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MODELLARI VA ULARNI QO'LLASH STRATEGIYALARI.....	509
Jo'rayev Farrux Do'stmirzayevich	
SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	517
Raximov Anvar Norimovich	
MOLIYA-KREDIT MEXANIZMLARI ORQALI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI RAG'BATLANTIRISH: XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR TAJRIBALARI.....	527
Ergashev Otamurod Tashtemirovich	
MUHANDISLIK TA'LIM SOHALARI TALABALARIDA TADBIRKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODEL.	536
Butayev Tuxtasin	
O'ZBEKISTONDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASIDAGI ASOSIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....	543
Abdusattorov Sarvar Shokirovich	
АНАЛИЗ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ СЕТИ МЕТОДАМИ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ.....	552
Алланиязова Айсапа Муратовна	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	564
Yadgarova Nigora Rixsulla qizi	
XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	572
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	
O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA IFLOSLANISHINI BAHOLASH VA BARQARORLIOKNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	584
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	591
Jabborov Azamat	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR INNOVATSION BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH TAJRIBALARI.....	596
Baymuratova Madina Tursunboy qizi	
IQTISODIYOTNING TARKIBIY O'ZGARISHLARINI KICHIK BIZNES TARAQQIYOTINI TA'MINLASHDAGI ROLINI BAHOLASH MASALALARI	602
Elov Olimdjon Komilovich	

MOLIYAVIY XAVFLAR TASNIFINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Jabborov Azamat

Iqtisodiyot va moliya vazirligida
boshqarma boshlig'i, PhD

E-mail: Azamat.Jabborov@imv.uz

ORCID: 0009-0001-4721-1855

Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy xavflarni boshqarishda xavflar tasnifini ishlab chiqish zaruriyati va uning afzalliklari, xavflar statistikasini yuritishda tasnifning ahamiyati hamda tasnifdan davlat moliyasini boshqarish tizimida foydalanish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, davlat moliyaviy nazorati tarkibiy qismi sifatida moliyaviy xavflar tasnifining tarkibi va undan foydalanilishiga qaratilgan takliflar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: moliyaviy xavflar, moliyaviy huquqbuzarliklar, davlat moliyaviy nazorati, davlat byudjeti, dastlabki nazorat, joriy nazorat, valyuta kursi, foiz stavkasi, normativ huquqiy hujjatlar.

Аннотация

В данной статье изложена необходимость разработки классификации рисков в управлении финансовыми рисками и ее преимущества, значение классификации в ведении статистики рисков, а также вопросы использования классификации в системе управления государственными финансами. Также представлены предложения, направленные на состав и использование классификации финансовых рисков как составной части государственного финансового контроля.

Ключевые слова: финансовые риски, финансовые правонарушения, государственный финансовый контроль, государственный бюджет, предварительный контроль, текущий контроль, валютный курс, процентная ставка, нормативно-правовые акты.

Abstract

This article describes the need to develop a risk classification in managing financial risks and its advantages, the importance of classification in maintaining risk statistics, and the issues of using classification in the public finance management system. Also presented are proposals aimed at the composition and use of the classification of financial risks as an integral part of state financial control.

Keywords: financial risks, financial offenses, state financial control, state budget, preliminary control, current control, exchange rate, interest rate, regulatory legal acts.

KIRISH

Moliyaviy xavflar haqida gap borganda, avvalo, moliyaviy oqimlarning asosiy vazifalari, natijalari hamda natijalar bo'yicha ma'lumotlarni jamlash, qayta ishlash va tahlil qilish orqali davlat moliyasini boshqarish tizimini isloh qilishga e'tibor qaratilishi lozim.

Bugungi kunda moliyaviy xavflarni aniqlashning asosiy sababi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshirishga ko'maklashish hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor moliyaviy xato va kamchiliklar faktlarini aniqlash, ularni bartaraf etish yoki javobgarlik masalalariga qaratiladi. Shu o'rinda tashkilotlar moliyaviy faoliyati bilan bog'liq me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilinishini nazorat qilish birinchi o'rinda turadi.

O'z navbatida, me'yoriy-huquqiy hujjatlarga amal qilish, avvalo, ularga rioya qilinmaganlik holatlari xavflarini aniqlash imkonini beradi hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Shuning uchun ham mamlakatimizda "moliyaviy xavflar" va "moliyaviy huquqbuzarliklar" tushunchalari ko'pincha bir ma'noda qo'llaniladi. Buning natijasida moliyaviy huquqbuzarlik holatlari ayni paytda moliyaviy xavflar sifatida ham qaralmoqda.

Bizningcha, mazkur holatni tadqiq qilish uchun moliyaviy xavflar bo'yicha olimlarning fikrlarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Rus olimlari Ye.G.Knyazeva va boshqalar tomonidan moliyaviy xavflarga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra moliyaviy xavflar – "moliyaviy resurslarni yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan qarorlarning qabul qilinishi" sifatida ta'riflangan¹.

A.K.Solodovning fikriga ko'ra, moliyaviy risklar – bu tashkilotning pul mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish, moliyaviy resurslar hajmi hamda tarkibi va ular orqali moliyaviy holatining noaniq ravishda o'zgarishiga olib keladigan hodisalardir².

M.Woods va K.Dowd fikricha, moliyaviy xavflar – maqsadlarga erisha olmaslik natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlar ehtimolining kelib chiqishidir. Bunda xavflar xorijiy valuta kurslari, foiz stavkalari, tovar narxlari, aksiyalar bahosi, kredit sifati, likvidlik kabi kategoriyalardagi noaniqliklarni aks ettiradi.³

Karen A.Horcher o'zining moliyaviy xavflarni boshqarish asoslari bayon etilgan asarida moliyaviy xavflarning yuzaga kelish manbalarini keltirib o'tgan⁴:

- Foiz stavkalari, valyuta kurslari va tovar narxlari kabi bozor o'zgarishlari.
- Xaridor va buyurtmachilar kabi tashkilotlar harakatlari va operatsiyalari.
- Tashkilot ichidagi xodimlar, jarayonlar va tizimlar harakatlari hamda muvaffaqiyatsizligi natijalari.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rishimiz mumkinki, moliyaviy xavflar qamrovi keng bo'lib, ular tarkibiga normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinishidan tashqari, bozor konyukturasi, iqtisodiy faoliyat va moliyaviy tizimlardagi o'zgarishlar kabi normativ hujjatlar asosida tartibga solinmaydigan masalalar ham qamrab olinadi. Shu sababli,

¹ Князева Е.Г., Юзвович Л.И., Луговцов Р.Ю., Фоменко В.В.. Финансово-экономические риски. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета. 2015г. 114 стр.

² Солодов А.К., Основы финансового риск-менеджмента. Издание Александра К. Солодова М.: 2018г. 286 стр.

³ Woods M., Dowd K., Financial Risk Management for Management Accountants. The Society of Management Accountants of Canada, the American Institute of Certified Public Accountants and The Chartered Institute of Management Accountants. 2008 y. 30 p.

⁴ Horcher K.A., ESSENTIALS of Financial Risk Management. John Wiley & Sons, Inc. 2005 y.272 p.

bizningcha, moliyaviy huquqbuzarlik va moliyaviy xavflar tushunchalarini bir-biridan ajratish maqsadga muvofiq.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi sifatida moliyaviy xavflar bo'yicha mavjud nazariy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xorijiy manbalarni tizimli o'rganish, solishtirma tahlil qilish hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi. Shuningdek, davlat moliyasini boshqarish tizimidagi moliyaviy xavflarga oid statistik va tahliliy ma'lumotlardan foydalanib, ularning tarkibiy va mantiqiy tahlili amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy huquqbuzarliklarni moliyaviy xavflar tarkibidagi yo'nalish sifatida ko'rish, masalani yanada tushunarliroq shaklda o'rganish imkonini yaratadi. Shunday konsepsiyadan kelib chiqiladigan bo'lsa, moliyaviy xavflar tasnifida moliyaviy huquqbuzarliklar yuzaga kelishi ehtimolini hisobga olish kerak bo'ladi. Lekin shu o'rinda moliyaviy huquqbuzarliklar moliyaviy xavflarning har bir turi va yo'nalishida yuzaga kelishi mumkinligini ham e'tiborga olish lozim. Moliyaviy huquqbuzarliklar barcha moliyaviy xavflar doirasida uchrashi mumkin. Shu sababli ular alohida guruh sifatida emas, balki har bir xavf turida tahlil qilinishi lozim. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, moliyaviy huquqbuzarliklar xavflarini moliyaviy xavflar tarkibida alohida yo'nalish sifatida shakllantirish shart emas. Shuning uchun ham moliyaviy xavflar tasnifida asosiy e'tiborni moliyaviy xavflarning yuzaga kelishi va salbiy ta'sirlarini guruhlashga qaratish kerak.


Moliyaviy xavflar tasnifining afzalliklari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Moliyaviy xavflarga nisbatan bir xil konseptual yondashuv shakllanadi.
- Moliyaviy xavflar bo'yicha barcha vazirlik va idoralarning "bir tilda so'zlashishi" imkoniyati yaratiladi.
- Xavflarni guruhlash orqali barcha vazirlik va idoralarda tahlil qilish uchun yagona asos paydo bo'ladi.
- Yagona moliyaviy xavflar tasnifi orqali xavflarni baholash bo'yicha qo'shma axborot tizimini yaratish va boshqarish imkoniyati yaratiladi.
- Moliyaviy xavflarni guruhlash va tahlil qilish orqali bir turdagi ko'p uchraydigan xavflarni minimallashtirishga erishiladi va boshqalar.

Moliyaviy xavflar tasnifi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- Moliyaviy xavflarga nisbatan bir xildagi konseptual yondashuv shakllanadi.
- Moliyaviy xavflar bo'yicha barcha vazirlik va idoralarning o'zaro samarali hamkorligi uchun sharoit yaratiladi.
- Xavflarni guruhlash va tahlil qilish orqali turdosh xavflarni aniqlash va ularni kamaytirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Moliyaviy xavflar tasnifi to'g'risida aytish mumkinki, uning ko'pgina elementlari aslida mavjud bo'lishi mumkin. Bu tasnifning asosiy qismi sifatida moliyaviy xavflar turi va toifalarini keltirishimiz mumkin.



1-rasm. Moliyaviy xavflar tasnifini ishlab chiqish va undan foydalanish jarayoni¹.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, moliyaviy huquqbuzarliklar moliyaviy xavflarning natijalarini o'zida aks ettiruvchi faktlar hisoblanadi. Shu bilan birga, moliyaviy xavflar moliyaviy huquqbuzarliklardan kengroq tushuncha bo'lib, u normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilinishidan tashqari moliyaviy ta'minot va oqimlarning sifatidagi o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Shuning uchun moliyaviy huquqbuzarlik va moliyaviy xavf tushunchalarini bir-biridan ajratish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy huquqbuzarliklarni moliyaviy xavflar tarkibidagi yo'nalish sifatida ko'rish, masalani yanada tushunarliroq shaklda o'rganish imkonini beradi. Shunday konsepsiyadan kelib chiqilsa, moliyaviy xavflar tasnifida moliyaviy huquqbuzarliklarning yuzaga kelish ehtimolini hisobga olish kerak bo'ladi. Lekin shu o'rinda moliyaviy huquqbuzarliklar moliyaviy xavflarning har bir turi va yo'nalishida yuzaga kelishi mumkinligini ham e'tiborga olish zarur. Bunday holatda moliyaviy huquqbuzarliklar xavflari gorizontalar xavflar hisoblanadi va moliyaviy xavflarning vertikal turlarining har birida yuzaga kelishi mumkinligi oydinlashadi. Shundan kelib chiqib, moliyaviy huquqbuzarliklar xavfini moliyaviy xavflar tarkibida alohida yo'nalish sifatida shakllantirish shart emas. Shu sababli moliyaviy xavflar tasnifida asosiy e'tiborni moliyaviy xavflarning yuzaga kelishi va salbiy ta'sirlarini guruhlashga qaratish lozim bo'ladi.

Moliyaviy xavflar tasnifini yaratishning quyidagi afzalliklari mavjud:

- Moliyaviy xavflarga nisbatan bir xildagi konseptual yondashuv shakllanadi.

¹ Muallif ishlanmasi

- Moliyaviy xavflar bo'yicha barcha vazirlik va idoralarning "bir tilda so'zlashishi" imkoniyati yaratiladi;
- Xavflarni guruhlash orqali barcha vazirlik va idoralarda tahlil qilish uchun yagona asos paydo bo'ladi;
- Moliyaviy xavflar bo'yicha vazirlik va idoralarning o'zaro axborot almashish imkoniyatlari kengayadi;
- Moliyaviy xavflarni guruhlash va tahlil qilish orqali bir turdagi ko'p uchraydigan xavflarni minimallashtirishga erishiladi.

Moliyaviy xavflar tasnifini yaratish bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish taklif etiladi:

1. Moliyaviy xavflarni ichki va tashqi turlarga bo'lish. Bunda ichki moliyaviy xavflar – muassasa tomonidan ta'sir o'tkazish imkoniyati mavjud bo'lgan xavflardir.

2. Moliyaviy xavflarni strategik, operatsion va ma'muriy toifalarga ajratish. Bunda:

- Strategik xavflar rivojlanish strategiyalarini moliyalashtirish manbalarini tanlash bilan bog'liq (strategiyalarni moliyalashtirish manbalari sifatida davlat byudjeti, birgalikda moliyalashtirish va subsidiyalar kabi usullar kiradi).

- Operatsion xavflar moliyalashtirish jarayonidagi holatlar (to'lovlarni to'liq yoki bo'lib to'lash, g'aznachilik yoki bank muassasalari orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar kabi).

- Ma'muriy xavflar esa tashkilot ichidagi xodimlar, jarayonlar va tizimlarning tashkiliy jihatdan muvaffaqiyatsizlikka uchrash ehtimolini qamrab oladi.

3. Moliyaviy xavflar tasnifini qo'llash bo'yicha yo'riqnoma ishlab chiqish.

4. Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimlarida avtoprofilaktika va avtokameral modullarni joriy qilish. Bu modullar moliyaviy xavflarni dastlabki bosqichda aniqlash, tegishli ogohlantirishlarni berish hamda zarurat tug'ilgan hollarda moliyaviy operatsiyalarni bloklash vakolatiga ega bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Князева Е.Г., Юзвович, Л. И., Луговцов Р. Ю., Фоменко В. В. Финансово-экономические риски. Учебное пособие. Екатеринбург Издательство Уральского университета, 2015. – 114 с.

2. Солодов А.К., Основы финансового риск-менеджмента. Издание Александра К. Солодова М, 2018. – 286 с.

3. M.Woods, K.Dowd. Financial Risk Management for Management Accountants. – Canada: The Society of Management Accountants of Canada, American Institute of Certified Public Accountants, Chartered Institute of Management Accountants, 2008. – 30 p.

4. K.A.Horcher. Essentials of Financial Risk Management. – USA: John Wiley & Sons, Inc., 2005. – 272 p.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**